

Umumiy o'rta ta'limning O'qish savodxonligi bo'yicha dars ishlanmalari
2-sinf (3-chorak)

1-mavzu: Ertaklar olami

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Shirin uyqu" o'zbek xalq ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ezgu niyatga, g'amxo'rlikka o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: suhbat, munozara, interaktiv o'yin

Dars jihozi: suratlar va plakatlar

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq so'raladi.
- Mavzuga qiziqtirish: **GoGoMo metodi (Ber bitta, Ol bitta, Davom et)**

O'quvchilardan muayyan mavzu/masalaga doir o'zining uchta g'oya/fikrini daftar/varaqqa yozishni so'rang.

Keyin har bir o'quvchi boshqa bir o'quvchining yoniga borib, sherigidan bitta fikr oladi, o'zi ham unga bitta g'oya/fikr beradi. O'zaro fikr/g'oya almashgach, keyingi o'quvchiga o'tadi va hokazo.

Bu usulda o'quvchilar orasida hamkorlik, kommunikativlik va hamjihatlik hosil bo'ladi.

Birorta o'quvchi chetda qolmaydi. Va eng muhimi o'quvchilarning "Think-Pair-Share" (O'yla-Birga ishla-Ulash) texnikasi asosida interfaol rivojlanishi uchun sharoit yuzaga keladi.



2.Asosiy qism(dars mazmunini tushuntirish va mustahkamlash):

Darslikdagi rasm (4-sahifa) asosida suhbat uyushtiriladi. Rasmlar qaysi ertakdan olingani muhokama qilinadi.



Muhokama uchun savollar:

- Siz qanday ertaklarni bilasiz?
- Rasmda qanday ertaklar tasvirlangan?



Matn ustida ishlash. “Shirin uyqu” ertagini o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ota bolalariga nima deb vasiyat qilgan ekan?
2. Bu vasiyatni bolalari qanday tushunishdi?
3. Ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushuna olgan ekan?

Fikringizni izohlang.

4. Uyqu shirin bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?
5. Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
6. Ertakdan chiqargan xulosangiz bilan o'rtoqlashing.

Ertak matnidagi notanish so'zlar ustida ishlanadi.

vasiyat–o'z yaqinlariga qoldirgan topshiriq, istak, nasihat.

chorpoya–ochiq havoda o'tirishga, yotishga mo'ljallangan yog'och karavot.

davlati ziyoda–boy, badavlat.

Mashq daftari bilan ishlash. Ertak matnidan otaning bolalariga aytgan vasiyatini yoziladi.

Harflarni o'z o'rniga qo'yib, ertakdagi bosh g'oya aniqlanadi. (**Mehmondo'stlik**)

“Bog'lang” mashqi

So'z birikmalar ma'nosi bilan moslashtiriladi.

qattiq uyqu

tez-tez uyg'onish bilan
bo'ladigan, yengil-yelpi, qisqa
uyqu.

shirin uyqu


hech narsani sezmasdan
uxlash

qush uyqu

miriqib uxlash

Darslikdan juftlikda ishlash uchun „Savollar gulshani“ mashqi o'tkaziladi.

Sharti: ertak asosida savollar tuzing. Savollaringizni o'qib bering va do'stlaringizni javoblarini eshiting.



3. Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- “Dars sizga yoqdimi?”, “Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz? “ savollariga javob beriladi.

Darsdagi ishtirokiga ko'ra o'quvchilar baholanadi.

 **Uyga vazifa:** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ertak mazmuniga mos maqollar toping.

2-mavzu: Hayvonlar haqida ertaklar

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni “Och bo'ri” o'zbek xalq ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: xalq og'zaki ijodi ertak turlari haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: